XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 3-dekabr | 693-12-180-Q/24 | Urganch shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish va ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 555-sonli qarorining hamda shu qarorga asosan Xorazm viloyati hokimining 2024-yil 10-oktabrdagi 389-12-0-Q/24-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish va ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 555-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Xorazm viloyat hokimining 2024-yil 10-oktabrdagi 389-12-0-Q/24-sonli qaroriga asosan

Qaror qilaman:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish va ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 555-sonli qarori hamda shu qarorga asosan Xorazm viloyati hokimining 2024-yil 10-oktabrdagi 389-12-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish va ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

hududlarni kadastr bo‘yicha bo‘lish hamda ko‘chmas mulklarning kadastr raqamlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining (keyingi o‘rinlarda–Kadastr agentligi) byudjetdan tashqari jamg‘armasi hamda Davlat kadastrlari palatasining o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi;

ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish natijasida ilgari berilgan kadastr raqami ko‘chmas mulkning mulk tarixiga oid ma’lumotlarda saqlanib qolinishi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov va Davlat kadastrlari palatasi Xorazm viloyati boshqarmasi Urganch shahar filiali rahbari B.Olloyorov shahar hududini kadastr bo‘yicha bo‘lish va ko‘chmas mulk obyektlarini hisobga olish, ularga bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda ularning kadastr raqamlarini shakllantirish va berishda Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshirilishini ta’minlash topshirilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov zimmasiga yuklansin

Urganch shahar hokimi **B.Radjapov**